



Professor Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna tarixi, tahlili

(O'zbek musiqa tarixi o'quv qo'llanma asosida)

Mamayunusova Zarnigor

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi

Milliy estrada san'ati instituti

Musiqashunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.

I.Karimov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Musiqashunoslik sohasi haqida tushunchalar berilgan hamda Musiqashunos olimi Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovnaning hayot yo'li va ijodi yoritib berilgan. Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovnaning “O'zbek musiqa tarixi” o'quv qo'llanmasi SSSR madaniyat ministrligining o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar boshqarmasi tomonidan musiqa oliy o'quv yurtlarining studentlari uchun o'quv qo'llanma sifatida ruxsat etilgan bo'lib 2 bo'lim, 6 bobdan iborat. Xotima, 5-6 boblar N.S.Yanov-Yanovskaya tomonidan yozib yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqashunos, ilm-fan, tarix, musiqa nazariya, maqola, taqriz.

Har bir sohaning yaratilish, rivojlanish yo'llari va tarixi bor. Mana shu sohalarni yaratilishi uchun ko'plab insonlar, allomalar va har bir inson sababchi bo'ladi. Musiqa san'ati ham asrlar davomida rivojlanib avloddan-avlodga o'tib kelyapti. Musiqa san'atini tahlil qilish davrlarga bo'lib o'rganish bu bir soha ya'ni Musiqashunoslik bilan bog'liqdir.



Musiqashunoslik – bu ilmiy fanlar yig‘indisi bo‘lib, ulardagi o‘rganiluvchi obyekt musiqa san‘ati va uning qonuniyatlari, xususiyatlaridir. U musiqa tizimida uning yaratilishi, ijrosi, idroki musiqaga o‘qitish, musiqa san‘ati vazifalarini anglab yetish va ularni amalga oshirish yo‘lini tushunishda ahamiyatli ro‘l o‘ynaydi. Musiqashunoslik ilmi tarixiy va nazariy toifalarga ajratiladi.

Musiqashunoslik – bu mustaqil ilm-fan. U mustaqil ilm-fan sifatida fundamental va amaliy masalalarni ishlab chiqadi. Ta’kidlash joizki, musiqashunoslik ilm-fanining asosiy vazifasi kasbiy musiqa faoliyatining turli sohalari ijrochilik, kompozitsiya, musiqiy ovoz rejissyorligi, shuningdek, aholining keng qatlamini musiqa madaniyati bilan oshno etish, musiqa ixlosmandlari orasida bilimlarini ommalashtirish kabi ijtimoiy funktsiyalarini zarur bilimlar bilan ta’minlashdan iborat.

O‘zbekiston musiqashunoslikning shakllanishi va rivojlanishi-taxminan XX asr o‘rtalaridan boshlandi. Musiqa rivojlanishida erkaklar va ayollar musiqashunoslar birdek harakat qilishgan. Mana shunday ayol musiqashunoslarimizdan biri bu san‘atshunoslik fanlari doktori professor Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovnadir.

Musiqashunos olimi Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna 1967-yildan buyon O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyishmasi a‘zosi. Zabardast musiqa tarixnavisi, ko‘p qirrali olimi, respublikamiz musiqa hayoti va san‘atshunoslik fani rivojlanishi jarayonida faollik ko‘rsatmoqda. Uning “Музыка узбекского кино и киномузыка” , “Узбекская симфоническая музыка”, “Икром Акбаров”, “Муталь Бурханов. Время, жизнь, творчество” kabi kompozitorlarning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan monografiyalari, zamonaviy professional musiqaning turli mavzu, dolzarb masala va muammolariga bag‘ishlangan 200 dan ortiq maqola, taqriz , respublikamizning madaniy hayoti va o‘zbek san‘atshunoslik faniga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda.

Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna 1934-yilning 31-mayda Rossiyaning Yekaterinburg shahridagi harbiy muhandis oilasida tavallud topdi. Natalya 1952-yili Samarqanddagi umumta’lim maktabini oltin medal bilan bitirib, Toshkent davlat chet



tillari institutiga o'qishga kirdi. Toshkentga o'qishga kelgan yili konservatoriyaning musiqashunoslik fakultetiga o'qishga kirdi. 1958-yili professor S.M.Veksler rahbarligida diplom ishini himoya qilib muvaffaqiyatli bitirdi.

N.Yanov-Yanovskaya o'qishni bitirgandan so'ng mehnat faoliyatini O'zbekiston radiosining chet el bo'limida katta muxarrirlikdan boshladi. 1960-1987-yillarda Hamza nomidagi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. 1966-1987-yillarda u konservatoriyada musiqa nazariyasi fanidan dars berdi. N.Yanov-Yanovskaya 1966-yili "Музыка узбекского кино и киномузыка" mavzusida yozgan dissertatsiyasini himoya qilib san'atshunoslik fanlari nomzodi va 1984-yili "Узбекская симфоническая музыка" mavzusida yozgan dissertatsiyasini himoya qilib, san'atshunoslik fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 1990-2010-yillarda konservatoriyada dotsent, professor, 2009-2014-yillarda konservatoriya qoshidagi Ilmiy tadqiqot markazida yetakchi ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

N.Yanov-Yanovskaya tinmay ijodiy mehnat qilib, respublikamiz musiqa ilmiy darajasini ko'tarishda jonbozlik ko'rsatdi. U o'zbek zamonaviy professional musiqa san'ati va san'atshunoslik fanining rivojlanish jarayonida samarali katta hissa qo'shdi. U 1972-yili musiqashunoslar ko'rik tanlovida 1 darajali diplomga sazovor bo'ldi.

Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna konservatoriyada ko'p yillik pedagogik faoliyati davomida ko'plab yosh musiqashunos mutaxassislarni tarbiyaladi. Uning rahbarligida o'nlab talabalar diplom ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilib respublikamizda va chet ellarda faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.¹ Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna 2001-yildan "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangan. 1991-1992-yillarda Xalqaro tarjimai hollar markazining "Yil ayoli" nominatsiyalariga sazovor bo'lgan. Uning "O'zbek musiqa tarixi" kitobi haqida so'z yuritir ekanmiz bu kitob SSSR madaniyat ministrligining o'quv yurtlari va ilmiy muassasalar boshqarmasi tomonidan musiqa oliy o'quv yurtlarining studentlari uchun o'quv qo'llanma sifatida ruxsat etilgan bo'lib 2 bo'lim, 6 bobdan iborat.

¹ "O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari" A.Jabbarov T 2018



I bo‘lim. **O‘zbekistonning Ulug‘ Oktyabr sotsialistik revolyutsiyagacha bo‘lgan davrdagi musiqa madaniyati** deb nomlangan va bo‘limda “O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi ajdodlarning musiqali-poetik ijodi”, “Ilk o‘rta asr san‘ati (IV-IX asrlar)”, “Somoniy davlatida musiqali hayot (IX-X-asrlar)”, “O‘zbek xalqining tashkil topish davri musiqa madaniyati (XI-XV-asrlar)”, “Musiqiy-nazariy merso”, “O‘zbek xalqining XVI-XIX asrlardagi musiqa madaniyati”, “O‘zbekistonning O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shib olingandan keying musiqa hayoti” kabi mavzular keng yoritib berilgan.

2-bobda “O‘zbek musiqa folklori va og‘zaki an‘anadagi professional musiqa”, “Xalq musiqasi”, “Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa”, “O‘zbek dostonlari”, “Musika asboblari”, “Cholg‘u asboblari an‘anaviy ansambllari”, “Lokal uslublar”, “O‘zbek sozonda va xonandalari” haqida so‘z yuritilgan.

II bo‘lim. **Sovet O‘zbekistonning musiqa madaniyati** deb nomlangan va bu bo‘limda “Xalq qo‘shiqlari”, “Bastakorlar”, “Musika havaskorligi”, “Dastlabki musiqa bilim yurtlari”, “Birinchi musiqa teatrlar”, “Qo‘shiq va romans”, “Musika drama”, “Opera”, “Simfonik musiqa” va 1993-1941-yillar musiqa hayoti hamda 1941-1945-yillardagi musiqa madaniyati, 1945-1975-yillardagi musiqa madaniyati haqida ma‘lumotlar berilgan.ⁱ

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Yanov-Yanovskaya Natalya Solomonovna hamda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomli San‘atshunoslik institutining musiqa bo‘limi ilmiy xodimlari va M.Ashrafiy nomli Toshkent Davlat konservatoriyasining Sharq musiqasi, musiqa tarixi va nazariyasi kafedra a‘zolari hamkorligi yaratilgan bu o‘quv qo‘llanma vazifasi o‘zbek xalqining qadimgi madaniyati shakllanishidagi asosiy bosqichlarni qisqacha bayon qilish, Turkistonning Rossiyaga qo‘shilishi O‘zbekiston Sovet Sotsialistik respublikasida musiqa qurilishining yanada rivojlanishida tutgan rolini yoritish, o‘zbek xalqining boy musiqa merosi bilan va professional kompozitorlik ijodining shakllanishi hamda rivojlanishiga oid muammolar bilan tanishtirib berilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.E.Solomonova “O‘zbek musiqa tarixi” T., 1981
2. Fitrat “O‘zbek klassik musiqa va uning tarixi” T., 1993
3. E.Mamadjanova “Наталия Янов-Яновская грани творчества” T.,2020
4. A.Jabborov “O‘zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari” T 2018
5. Uzm.wikipedia.org.
6. Uzkivand.com.
7. Qomus.info
8. Uz.tierient.com

ⁱ “O‘zbek musiqa tarixi” Toshkent “o‘qituvchi 1981”